



## O'QUVCHILARNI KITOB O'QISHGA BO'LGAN QIZIQISHINI OSHIRISH UCHUN SAMARALI METODIKA ISHLAB CHIQARISH ( BOLANI KITOB O'QISHGA QIZIQTIRISH)

**Nurimbetov Axmadjan Niyazmbetovich**

*Ellikqala Xalq Talimi bolimi mudiri*

**Xudayarova Ozoda Baxtiyarovna**

*Ellikqal' tumani xalq ta'limi bo'limiga qarashli*

*5- sonli maktab direktori*

**Annotatsiya:** Sinfdan tashqari o'qish kichik yoshdagi o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlash omili sifatida talqin etiladi. Bundan ko'zlanadigan asosiy maqsad esa -boshlang'ich sinf o'quvchilarini bolalar adabiyoti va xalq og'zaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitob o'qishga qiziqish uyg'otish, kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirish.

**Kalit so'zlar:** o'quv materiali, og'zaki ijod, bolalar adabiyoti, ilmiy-ommabop asarlar, o'qish dasturi.

Sinfdan tashqari o'qish dasturining mazmuniga ko'ra, ta'limning har bir bosqichida ikki asosiy bo'lim ajratiladi:

Birinchi bosqichda o'qish doirasi, ya'ni o'qitiladigan kitoblarning o'quvchi yoshiga mosligi va ularni qaysi tartibda o'qish kerakligi haqida ularga ko'rsatma beriladi.

Ikkinchi bosqichda shu o'quv materiali asosida bilim, ko'nikma va malaka shakllantiriladi.

Ko'pchilik ota-onalar farzandlarining kitob o'qimayotganligidan, dangasa, bekorchi bo'lib o'sayotganidan nolishadi. Ammo kitob o'qimaslik muammosi bugungi kunda nafaqat siz-u bizni , balki dunyodagi barcha ota-onalarni tashvishga solib kelayotgan dolzarb muammolardan biri sanaladi.

-Xo'sh, bunga sabab nima ?

Bugungi kunda texnologiya jadal rivojlangan. Televizor, kompyuter, internet, uyali aloqa vositalari har bir uyga kirib brogan. Balki vaqt yetishmovchiligi, kun tartibining tig'izligi(har xil to'garaklar, sport mashg'ulotlari,progressga qatnashish va hakozolar), kompyuter texnologiyalari kitoblarni chetga surib qo'yayotgandir. Balki internet, televizor orqali olayotgan axborotlar farzandlarimizning ma'naviy ehtiyojlarini qondirar, biroq estetik did, tafakkurni o'stirish uchun badiiy asarlarni o'qish suv va havodek zarur deb o'ylayman.

Bolalarning kitob o'qimay qo'yanini loqaydlik yoki o'qishga ishtiyoqining sustligi bilan emas, balki ular o'zlarini qiziqtirayotgan savollarga boshqa manbalardan javob topayotganligi bilan izohlash mumkindir balki. Kichik yoshdagi bola kundalik hayotida ko'plab ma'lumotlarga duch keladi.Kompyuterda o'yin





o'ynash uchun elementar buyruqlarni o'qiy olish va klaviyaturani boshqarish ko'nikmasiga ega bo'lish talab etiladi. Telefon orqali ham bola juda ko'p ma'lumotlarni, axborotlarni olishi mumkin. Shunday ekan, farzandlarimizni dangasalikda ayblay olamizmi?

-Yo'q, albatta.

Hozir Mobil telefonlarning tezkor xabarlar xizmati, televizion dasturlar, kompyuter bolalar hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Ayni paytda bolalarga yangi, qiziqarli, sodda, kundalik hayotga xos narsalarga qiziqish kuchli. Ammo bu narsalar tafakkurning rivojlanishiga xizmat qilmaydi.

Qani, kompyuter bilan kitobni solishtiraylik.

Kompyuterda bola barcha amallarni o'zi bajaradi, unda tugmani bosish yoki imkon, o'ziga yoqmagan joylarni o'chirish, xatolarni tuzatish kabi imkoniyatlarga ega. Bu bola uchun qiziqarli mashg'ulot hisoblanadi. U kompyuter o'yinlaridan zavq oladi, kitob o'qiganda esa kattalaning ma'naviy rag'batiga ega bo'ladi, xolos. Ammo kitob o'qish davomida bola asar qahramoni his qilayotgan narsalarni sezaga oladi, o'zini o'sha qahramon qiyofasida kora oladi, uning hatti-harakatlariga o'zicha baho beradi, nima yaxshi-yu nima yomonligini ajratishga urinadi, oq va qorani bir-biridan farqlashga o'rganadi.

Kichik yoshdagagi bolani kitob o'qishga qiziqtirish uchun bu jarayonda o'zini faqat kuzatuvchi sifatida emas, balki faol ishtirokchi sifatida his qilishga imkon yaratishimiz kerak. Unga ertak, hikoya yoki she'rlarni o'qib berayotganimizda asar voqealarini jonlantirishimiz, bola tasavvurida o'sha qahramonga nisbatan munosabatni shakllantirishimiz kerak. Buning uchun bolaga "Sen shu qahramon o'rnida bo'lsang nima qilgan bo'larding?" yoki "Shu qahramonga sen qanday bo'lishni maslahat berarding?" kabi savollar bilan murojaat qilsak, uning asar haqidagi fikrlarini, qahramonga nisbatan mehr uyg'otishga erishishimiz mumkin. Ertak yoki hikoyalarni rollarga bo'lib o'qitish ham yaxshi samara beradi.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarida sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari o'quvchi ongi, fikrlash doirasinig kengayishiga, dunyoqarashining o'sishiga yordam beradi.

1-sinfda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida ona Vatan, istiqlol, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvur va tuchunchalar kengaytiriladi, boyitiladi. 1-sinfda haftasiga bir marta saboq o'rgatish darslarining 20 daqiqasida bolalar adabiyot namunalari bilan tanishtiriladi. Bunda asosan, sinf o'quvchilarida kitobga munosabat, mutolaa qoidalari, kitobni asrash, asar qahramonlarining hatti harakatlarini kuzatish, ijobjiy tomonlarini o'rganish, qayta hikoya qilish malakalarini shakllantiradi.

2-sinfda o'quvchilar kichik hajmli asarlarni mustaqil o'qishga o'tadilar. 2haftada bir marta sinfdan tashqari o'qish darsi o'tkaziladi. Ona Vatan, otabobolar jasorati, o'simliklar, hayvonlar va qushlar haqidagi asarlarni o'qituvchi topib, o'quvchilarga o'qish uchun tavsiya etadi.





3-4- sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilar mustaqil o'qishi uchun kishilar hayoti yorqin tasvirlangan, ma'naviy-axloqiy turmush tarzi aks etgan badiiy, ilmiy-ommabop asarlar tavsiya etiladi.Ushbu sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari ikki haftada bir marta o'tkaziladi.

Badiiy , ilmiy-ommabop asarlarni o'quvchilar mustaqil o'qib borishsa, ularning dunyoqarashining shakllanishiga, kengayishiga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarni bolalar adiblari bilan tanishtirib borishi lozim. Quddus Muhammadiy, Zafar Diyor, Po'lat Mo'min, Anvar Obidjon kabi yozuvchi va shoirlarning asarlari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'tadi. O'qish darslarida o'qigan asarlari haqida o'rtoqlariga gapirib berish, asar qahramonlari nomlarini yozish, ularni tasvirlab berish ,ijodiy rasm chizish , shu asar mazmuniga mos maqollardan yod olish kabi topshiriqlar bolalarning badiiy asarlarni o'qishga nisbatan qiziqish uygo'tadi.Bundan tashqari o'zlari o'qigan asarlarini sahnalashtirishi mumkin. Bu kabi usullar bolalarning nutqining rivojlantirishiga, lug'at boyligining oshishiga,xotirada saqlash qobiliyatining o'sishiga yordam beradi.


Har bir o'quvchimizni kutubxonaga a'zo bo'lishini, muntazam kitob o'qib turishini nazorat qilib borishimiz mumkin . Masalan , men hozirda 4-sinf rahbari sifatida o'quvchilarimning ertak, hikoya yoki she'rlar o'qib borishini nazorat qilib boraman. O'quvchilarning "O'quvchi oynasi" haftalik baholar varaqasini yuritib boraman. Unda o'quvchilarning fanlardan olgan baholari, hafta davomida uy vazifalarini puxta tayyorlagani, darsga qatnashishi, darsliklarni saqlashi, shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilishi , o'zini titishi va sinfdan tashqari o'qigan hikoya va ertaklari, yod olgan she'rlari kabilar bo'yicha har hafta yakunida baholab , ota - onaga yetkazaman. Ota-onha bu bilan tanishib,savol tug'ilsa ,dushanba kuni o'z fikrlarini yozib yuboradi.

"O'quvchi oynasi" o'quvchilarni faollashtirish bilan birga ularning o'z ustida ko'p ishlashga , har haftada yangi ertak , hikoya o'qishga, she'rlar yod olishga undaydi.

Bundan tashqari, sinfdagi o'quvchilar orasida shaxsiy kutubxona tashkil qilish, o'z kutubxonalarini rang-barang kitoblar bilan boyitib borish, o'zida bor kitoblarni sinfdoshlar bilan almashib o'qish kabi ishlarni ham yo'lga qo'yganmiz.

Tarbiyaviy mashg'ulotlarda ham kitob o'qishga , inson qadri bilimda ekanligini , kitobdan yaxshi do'st yo'qligi, kitob - xazina, bilim - boylik ekanligini aytib, shu mazmundagi hikoyalardan so'zlab beraman.Shunday hikoyalardan birini sizlarga ham taqdim etishni joiz deb bildim.

Aytishlaricha, Buxoro Amiri Nuh Ibn Mansurning saroyida juda boy kutubxonasi bo'lgan,ammo unga kirish uchun hammaga ham ruxsat etilmagan.Bir tasodif tufayli Ibn Sino o'sha kutubxonaga kirish va kitoblardan foydalanish huquqiga ega bo'ladi.





Kunlardan bir kuni amir kasal bo'lib qoladi. Saroy tabiblari uni davolay olmaydilar. Shunda Buxoro tabiblari orasida endigina nom chiqarib kelayotgan Ibn Sino haqida gapirib qolishadi. Amir uni saroyga chaqirishlarini buyuradi. Ibn Sino amirni davolaydi. Bundan xursand bo'lgan amir uni saroy tabiblariga boshliq qilib tayinlaydi va "Tila tilagingni Tila tilagingni" deydi. Ibn Sino amirdan kutubxonadan foydalanishga ruxsat berishini so'rabdi. Amir ruxsat beribdi. Shunday qilib, mashhur olim amir kutubxonasidan foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

Bu hikoyani aytishdan maqsad shuki, Ibn Sinoning jahonga mashhur tabib bo'lishiga asosiy sabablardan biri unung kitob o'qishga ishtiyoqining balandligidir. Zero, xalqimiz : " Ko'p o'qigan ko'p bilar", - deb bejiz aytmagan.


Qush uyasida ko'rganini qiladi. Bolani kitob o'qishga qiziqtirishda ota-onaning o'rni beqiyos. Bolalar ota-onalarning harakatlariga taqlid qilishadi. Uyda berilib kitob o'qiyotgan yoki o'qiganlarini so'zlab berayotgan kattalarni ko'rmasa, kitob o'qishga ehtiyoj sezmasliklari tabiiy hol. Farzandimizga o'qigan hikoyasini gapirib berishga o'rgatsak, erinmay uning hikoyasini tinglasak, vaqt topib ularni kitob do'konlariga olib borsak, ularni yangi hikoyalar to'qishga o'rgatish, o'zimiz ham u bilan birga to'qisak, ana shundagina bolada kitobga nisbatan mehr uyg'otish mumkin.

-Bolani necha yoshdan va qanday qilib kitob o'qishga o'rgatish mumkin?

Kitob - bolalarning hayotga, tabiyatga, borliqqa bo'lgan munosabatini, qarashlarini shakllantiradigan, estetik didini o'stiradgan muhim vosita sanaladi. Eng avvalo, bolaning mutolaa ko'nikmasini shakllantirishda unga o'qib berayotgan, ko'rsatayotgan kitobimizning xilma-xilligiga ahamiyat berish kerak. Biz taqdim etayotgan kitoblar hayvonlar, qushlar, daraxtlar, mashinalar va hakozaqlar haqida bo'lsa maqsadga muvofiq.

Bolalarni o'zlashtirishi va layoqatiga qarab, 3-4 yoshidan boshlab kitob o'qitishga o'rgatsa bo'ladi. Shu yoshda bolalar bilan suratli ertak kitoblarni ko'rib chiqish, keyin ushbu ertakni qo'g'irchoqlar yordamida sahnalashtirilgan holda aytib berish mumkin. Keyin bola o'zi mustaqil hikoya qilishga harakat qiladi. Ertaklar olami bolalar tasavvurini, fantaziyasini rivojlantiradi. Ularda kitobdag'i ijobjiy va salbiy qahramonlarga nisbatan munosabat shakllanadi. Misol tariqasida "Sholg'om", "Bo'g'irsoq", "Qizil qalpoqcha", "Zumrad va Qimmat", "Uch og'a-ini botirlar" kabi ertaklar ni keltirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda yosh avlod juda katta imkoniyatlar qurshovida voyaga yetmoqda. Har xil yot illatlar ham bugungi kunda yoshlarni o'z domiga tortmoqda. Bunday yomon illatlardan saqlanishda bolalarimiz hur fikrli, keng mulohazali, aqli bo'lishlari kerak. Bu borada ham kitobning o'rni, yordami katta. Chunki ko'p kitob o'qigan bola o'z fikriga ega, yaxshi-yomonni ajrata olishi, birovrlarning ig'vosiga aldanmasligi aniq. Shunday ekan, bolalarimizni, o'quvchilarimizni kitob o'qishga o'rgataylik, aziz yurtdoshlar!





## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dilova N.G.(2021). Formative assessment of student knowledge-as a means of improving the of education. Scientific reports of Bukhara State University. 3:5,pp.144-155.
2. Dilova H.G. (2018) Buyuk ajdodlarimizning ta'limotlarida mujassamlashgan o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligning pedagogik xususiyatlari. Zamonaviy ta'lim. №3, 63-68 b.
3. WWW. Ziyonet.uz Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. I Monografiya .-T. " Fan va texnologiyalar", 2016.-77-b

